



TALABALARDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH AFZALLIKLARI

G'ulomjonova Z.A`.

Buxoro innovatsiyalar universiteti 2-bosqich magistri

Tayanch soʻzlar: muloqot, madaniyat, ijtimoiy, shaxs, ijtimoiy, qadriyat, kommunikativ, savodxonlik, kompetentlik, koʻnikma, bilim, shaxs.

Ключевые слова: общение, культура, социальная, личность, социальная, ценностная, коммуникативная, грамотность, компетентность, умение, знание, личность.

Key words: communication, culture, social, personality, social, value, communicative, literacy, competence, skill, knowledge, personality.

Yangilanib borayotgan jamiyatimizda sogʻlom avlodni tarbiyalash, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga yuksak eʼtibor berilmoqda. Komil insonning muhim sifatlaridan biri, shubhasiz, muloqot madaniyatidir. Yetarlicha shakllanmagan muloqot madaniyatisiz sogʻlom ijtimoiy munosabatlarni oʻrnatish juda mushkul.

Muloqot bilan bogʻliq muammolar psixologiya fanida chuqur oʻrganilgan boʻlib, bu borada katta hajmdagi ilmiy bilim toʻplangan. Unga tayanib, insonning psixik rivojlanishini, uning boshqalar bilan boʻlgan aloqasini, individning shaxs boʻlib shakllanishini muloqatsiz aslo tasavvur etib boʻlmaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Aniqlanishicha, muloqot ham oʻziga xos ehtiyoj. Polshalik psixolog YE.Melibruda aytganidek, shaxslararo munosabatlar biz uchun havodek ahamiyatga egadir. Goʻdaklik va oʻsmirlik davrlarida muloqot yetakchi faoliyat, yaʼni yangi psixologik xususiyatlarning shakllanishiga bevosita taʼsir koʻrsatuvchi faoliyat sifatida gavdalanadi. Shuning uchun boʻlsa kerak, baʼzida odamga nisbatan Homo communicans tushunchasi ishlatiladi.

Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni oʻzlashtirish va oʻz ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega boʻladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular



interiorizatsiyalanadi. Muloqot davomida ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar amalga oshadi, uning vositasida hamkorlikdagi faoliyat ro'yobga chiqariladi. Inson, haqiqatdan ham, Homo communicansdir.

Muloqot psixologiyasi sohasidagi bilimlarni yoshlar, ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarga yetkazish ularning psixologik savodxonligini oshiradi, ma'naviy axloqiy tarbiyasini yuksaltirishga yordam beradi, bo'lg'usidagi pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yordam beradi.

Muloqot madaniyatini rivojlantirish muammosi shaxsning go'zallikka bo'lgan individual intilishi, ohang tanlashi, mazmuni, o'zini tutishi, boshqalar bilan muloqot darajalari bilan uyg'unlashadi. U shaxsning estetik madaniyatining rivojlanganligi bilan kompleks ravishda o'zaro aloqadorlikda bo'ladi. Bundan tashqari, kommunikativ mexanizmning samarali tarbiyaviy ta'siri anglash va bilishning instrumenti sifatidagi ilmiy va gumanitar bilimlarning prezentativligi orqali o'zaro hamkorlikdagi subyektlarning dialogik munosabatlar sharoitidagina samarali hisoblanadi. U muloqot ishtirokchilari tafakkurida ichki dialogning uyg'onishi natijasida yuzaga keladigan to'laqonli axborot ma'lumot almashinuvining turli shakllari, vositalari, usullari bilan ifodalanadi. Shu bilan bir qatorda, mazkur jarayon, kommunikativ savodxonlik va kompetentlik, shaxsiy meyorlar, shaxsning umumiy madaniyati asosida yotgan bilim, malakalarining rivojlanishiga ham ta'sir qiladi, ijtimoiy rollarni bajarish usullari va qoidalarini egallash maqsadida tashkillashtirilgan ta'lim va tarbiya orqali kuchayadi, hamda vaziyatlarning talqini, tashkillashtirish maqomiga mos shakllar, hamkorlik o'tadigan manzilning tafsilotlariga bog'liq bo'ladi. Muloqot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning samarali usuli faqatgina uning subyektlari ochiq emotsional o'zaro ishonch shaklidagi muloqotga kirishishga tayyor bo'lsagina natija beradi. Ular shaxsiy bilimlarini, hayotiy tajribalarini namoyish etishadi, ma'lumotlarni chin dildan qabul qilishadi va manipulyatsiya yoki psixologik bosim o'tkazish orqali natijaga erishishga harakat qilishmaydi. Haqiqiy muloqotni, shaxs qadriyatlar va ma'naviy yo'nalishlardan mahrum qilingan, agressivlik muhitida amalga oshirib bo'lmaydi. U bir-biriga ishonch, o'zini mustaqil namoyon eta olish, ma'naviy-axloqiy tamoyillarga asoslangan bo'lishi kerak. Bo'lg'usi mutaxassislarning muloqot madaniyatini samarali shakllantirish va rivojlantirish ularga o'z kasbiy majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarishda, olgan bilimlaridan, tajribalaridan, shaxsiy qobiliyatlaridan o'z o'rnida munosib oydalanishda, o'zini doimiy nazorat qilishda va kutilmagan to'siqlarga uchraganda o'z faoliyatini qayta qura olishga yoki muloqot vaqtida har qanday nizolarga duch kelganida uni bartaraf qilishga yordam beradi. Muloqotda ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar ro'yobga chiqariladi. Muloqotsiz

insoniyat jamiyati bo'lishi mumkin emas. Aynan muloqot hamkorlikda faoliyat yurituvchi individlar jamoasini shakllantiradi. O' amkorlikdagi faoliyat rejasini tuzish uchun, uni ro'yobga chiqarish uchun individlar o'rtasida muloqot amalga oshirilishi shart. Muloqot vositasida hamkorlikdagi faoliyat tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Ayni vaqtda faoliyat davomida insonlar o'rtasida yangi-yangi munosabatlar va aloqalar shakllanadi. Demak, muloqot va faoliyat o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Muloqot inson hayotida qanchalik yuksak ahamiyatga ega ekanligini quyidagi misollar yaqqol ko'rsatadi.

1-misol. 1938 yil Richard Bard o'z xohishi bilan Antarktida muzliklarida 6 oy tanho qoladi. Bir tomondan u tajriba natijalariga qiziqsa, ikkinchi tomondan, kundalik hayotning g'ala-g'ovuridan biroz dam olishni istagan edi. Keyinchalik u mazkur davrni quyidagi so'zlar bilan eslaydi: «Bu yerdagi hayotim davomida bora-bora har bir harakatim, har bir ishim tobora mazmunsiz, mantiqsiz, maqsadsiz bo'lib borayotganday edi. Xavf xatarlardan qo'rqmaydigan odam bo'lsam-da, negadir bu yerda tomning bosib qolishidan, o'choqdan o't ketib qolishidan xavfsiray boshladim. Ovqatlanishimda muntazamlik yo'qoldi, yuvinmay qo'ydim».

2-misol. Tarixda yaponlarda «Moritao» nomli insonning o'z-o'zini takomillashtirish tizimi mavjud bo'lgan. U shunday tizimlarning eng og'iri va murakkabi bo'lib hisoblanadi. Vaholanki, inson hech qanday jismoniy azoblarga duchor bo'lmaydi. Faqatgina bir haftaga g'orga kirib ketib, u yerda tanho qoladi. Bu yerda u, hatto, o'zi bilan ham gaplashishi mumkin bo'lmagan. Sinovdan o'tganlar keyinchalik har qanday uchrashuv va suhbatni hursandchilik bilan qarshi oladilar. Qizig'i shundaki, ularda ko'proq gapirish ehtiyoji emas, balki tinglash ehtiyoji kuchayar ekan.

3-misol. Bir paytlarda Amerikada barcha tamaddixonalarni avtomatlashtirish avj olgan edi. Ammo ko'p o'tmay ularning egalari kasodga uchrash boshladi. Ma'lum bo'lishicha, bu yerga odamlar nafaqat tamaddi uchun, balki suhbatdosh topish uchun ham kelganlar.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining muloqot madaniyatini rivojlantirish, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim: shaxslararo munosabatlar sohasidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirish; kommunikativ bilimlar va ko'nikmalar holatini tashxislash, muloqot chegaralarini aniqlash; talabalarning kommunikativ bilim va ko'nikmalarining shakllantirish jarayonini mukammallashtirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va tadbir etish; talabalarda muloqotga oid bilim va ko'nikmalarining shakllanganlik holatini tashxis asosida tahlil qilish. Mutaxassislarining tizimli tayyorgarligi asosini



uzluksiz ta'lim tashkil etishiga qaramay, aynan madaniyatni shakllantirish jarayoni uzluksiz bo'lib, kasbiy mahoratni muvaffaqiyatli egallashini, hamda mutaxassisning yuqori shaxsiy-ijtimoiy mavqega ega bo'lishini ta'minlaydi. O.V. Uvarkinning fikriga ko'ra, hozirgi kunda muloqot madaniyatini shakllantirishning quyidagi ikkita yo'nalishini ajratish maqsadga muvofiq: toki til madaniyati, nutq san'ati, kommunikativ axloqning etikasi, yuqori axloqiy sifatlar va insonparvar dunyoqarash shakllanmas ekan yoshlarning kasbiy pedagogik ta'limi tugallangan deb bo'lmaydi; muloqot madaniyati har bir mutaxassisdan boshqalar bilan muloqot maqsadlariga erishishni ta'minlovchi xulq-atvorning ma'lum xususiyat va strategiyalarning mavjudligi; o'zi haqida yaxshi taassurotni tuzib chiqish, mahsuldor muloqot qilish, kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatga yo'naltirish, jamoaviy munosabatlarda o'zini mustaqil namoyon qilishga harakat qilish, mehnat jamoasida yangi munosabatlarga moslashish va boshqalar.

Tinglash muloqotning o'ta muhim komponentidir. Shuning uchun talabalar, tinglash san'atini puxta egallamay odamlar bilan hech qachon sog'lom munosabat o'rnatib bo'lmaydi. Tinglay bilmaslik og'ir ma'naviy va sezilarli iqtisodiy zarar keltirishi mumkin.

Ba'zida so'zlovchi batafsil javob talab etmaydi. Uni tinglashsa bas. A.P.Chexov o'zining «Anduh» hikoyasidagi voqeda buni kuchli ifodalab bera olgan. Hikoya qahramoni Iona Potapovning o'g'li vafot etadi. G'am-anduhga to'lib toshgan izvoshchi o'zining hasratini yoyish uchun tinglovchi topa olmaydi. Aravasiga o'tirgan harbiy kishi: «Nima qildi?», deb so'raydi. Iona o'g'lining o'lganini aytadi. Shunda haligi kishi «Xudoning qudrati. E-ey ko'zingga qarasangchi, aravangni tezroq hayda, bunaqada ertaga yetib boramiz shekilli», deb qo'rslik qiladi. Izvoshchi keyin yana bir necha bor yo'lovchiga qarab qo'yadi. Lekin uning ko'zlari yumuq. Gaplashishni xohlamayapti, degan fikrga boradi Iona. Keyin uning aravasiga uch yosh yigit o'tiradi. Iona endigina gapirish uchun og'iz ochgan edi yigitlar «hammamiz ertami kechmi o'lamiz» deb qo'ya qolishdi. Iona ko'chadagi odamlarga tikilar ekan, uni faqat bir fikr qiynardi: «Bular ichida meni bir zum tiglay oladigan odam topilarmikan?». Afsus topilmadi. Shuning uchun tunda otga qarab qo'yish maqsadida otxonaga kirgan Iona otiga ko'nglida yig'ilib ketgan gaplarini aytadi. Faqat ot timsolidagina u tinglovchini topa oladi. Vaholanki, unga ko'p narsa kerak emasdi. Faqat tinglasalar bo'ldi edi.

Psixolog I.V.Dubrovinaning yozishicha, unga tanish psixologlaridan biri shunday voqeani hikoya qilib bergan: «Kunlarning birida men tramvayda ketayotgan edim. Butun yo'l davomida yo'lovchilardan biri o'zing dard va



hasratlarini men bilan o'ртоqlashib kelardi. Men izohlarsiz uni tinglab borardim. Vaqti-vaqti bilan diqqat bilan tinglayotganimni namoyon etib turardim. Tramvay suhbatdoshimning bekatiga yetib, u tushib ketar ekan «Sizdek yaxshi suhbatdosh bilan anchadan buyon suhbatlashmagan edim» dedi. Vaholanki, men unga bir og'iz ham so'z aytmagan edim». Nima uchun yo'lovchi bunday xulosaga keldi? Chunki suhbatdosh maslahat berishga shoshilmadi, kim bilsin balki so'zlovchining o'zoq vaqt hal bo'lmayotgan muhim muammosini darhol hal etib berishga intilmadi. U faqat e'tibor bilan tigladi. Suhbatdoshning ruhiy holatini his etib tingladi.

Afsuski, muloqot ishtirokchilari har doim ham tinglashning ahamiyatini tushunib yetavermaydi. Afsuski, inson ko'p hollarda tinglash ham kuchli psixoterapevtik vosita ekanini unutib qo'yadi. Vaholanki, eng ajoyib suhbatdosh bu-tinimsiz qiziqarli voqea va latifalar aytib bera oladigan inson emas, bu tinglashni biladigan insondir.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining muloqot madaniyatini rivojlantirishga tinglashning ahamiyatiga etibor berish maqsadga muvofiqdir

Adabiyotlar:

1. G'oziyev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
2. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. T. ToshDPU.2002.o'quv qo'llanma.
3. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T. 1999.

РЕЗЮМЕ

Muloqot bilan bog'liq muammolar psixologiya fanida chuqur o'rganilgan bo'lib, insonning boshqalar bilan bo'lgan aloqasini, muloqatsiz aslo tasavvur etib bo'lmaydi. Maqolada talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirish afzalliklari borasida fikrlar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

Проблемы, связанные с общением, глубоко изучены в науке психологии, и без общения невозможно представить взаимоотношения человека с окружающими. В статье описаны преимущества формирования культуры общения у студентов.

SUMMARY

Problems related to communication have been deeply studied in the science of psychology, and it is impossible to imagine a person's relationship with others without communication. The article describes the advantages of forming a culture of communication in students.